



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA O'LIM KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI VA TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLILI

PhD Yeshniyazov Djamshid Djaxangirovich

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi,
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti*

ORCID: 0009-0001-6633-528X

jamshide@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining 20 yil davr oralig'idagi vafot etganlar mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari dinamikasi ko'rib chiqilgan, ushbu ko'rsatkichlarning shahar va qishloqlardagi holati taqqoslangan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman shaharlar kesimida o'lim koeffitsienti o'zaro solishtirish orqali tahlil qilinib, xalqaro mezonlar asosida tuman shaharlar ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan va vafot etganlarning o'lim sabablari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, Qoraqalpog'iston Respublikasida go'daklar o'limi dinamikasi ko'rib chiqilib, yillar kesimida hamda 1 yoshgacha vafot etganlarning o'lim sabablari bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko'rsatkichi so'nggi yillardagi tendentsiyasi yillar kesimida o'zaro taqqoslanib tahlil qilingan va barcha tahlillar asosida xulosa va takliflar keltrilgan.

Kalit so'zlar: o'lim, o'lim sabablari, go'daklar o'limi, o'lim va go'daklar o'limi koeffitsienti, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, o'lim koeffitsienti mezonlari.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИНАМИКИ И ТЕНДЕНЦИЙ ИЗМЕНЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СМЕРТНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

PhD Ешниязов Джамшид Джахангирович

*Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан,
Института повышения квалификации кадров
и статистических исследований*

Аннотация. В данной статье рассматриваются показатели динамики абсолютных и относительных показателей смертности населения Республики Каракалпакстан за 20-летний период, сравнивается положение этих показателей в городах и селах. Также в разрезе районных городов Республики Каракалпакстан коэффициенты смертности были проанализированы путем перекрестного сравнения, были рассмотрены показатели районных городов на основе международных критериев и проанализированы причины смерти умерших. Кроме того, была изучена динамика младенческой смертности в Республике Каракалпакстан и проведен анализ причин смерти в разрезе лет, а также тех, кто умер в возрасте до 1 года. Проведено сравнение и анализ динамики ожидаемой продолжительности жизни при рождении в Республике Каракалпакстан за последние годы, на основании всех анализов сделаны выводы и предложения.

Ключевые слова: смерть, причины смерти, младенческая смертность, коэффициент смертности и младенческой смертности, ожидаемая продолжительность жизни при рождении, критерии уровня смертности.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE DYNAMICS AND TRENDS OF MORTALITY RATES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

PhD *Yeshniyazov Djamshid Djaxangirovich*

*Statistical agency under the President of the Republic of Uzbekistan,
Institute for Staff Advanced Training and Statistical Research*

Abstract. *This article examines the dynamics of absolute and relative mortality rates of the population of the Republic of Karakalpakstan over a 20-year period, and compares the position of these indicators in cities and villages. Also, in the context of regional cities of the Republic of Karakalpakstan, mortality rates were analyzed through cross-comparison, the indicators of regional cities were examined based on international criteria, and the causes of death of the deceased were analyzed. In addition, the dynamics of infant mortality in the Republic of Karakalpakstan was studied and an analysis was carried out of the causes of death by year, as well as those who died under the age of 1 year. A comparison and analysis of the dynamics of life expectancy at birth in the Republic of Karakalpakstan in recent years has been carried out, and conclusions and proposals have been made based on all the analyses.*

Key words: *death, causes of death, infant mortality, mortality rate and infant mortality rate, life expectancy at birth, mortality rate criteria.*

Kirish.

Aholi soni dinamikasini o'rganish uning o'zgarishi asosiy tendentsiyasini kuzatish, ushbu o'zgarishlarning asosiy sabablarini aniqlash, dinamik jarayonlarga ta'sir qiluvchi, belgilovchi omillar ta'sirining iqtisodiy va demografik oqibatlarini aniqlash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy va siyosiy omillarning o'zi aholi soni dinamikasiga va aholining demografik va ijtimoiy xususiyatlarining tarkibiy o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi. Mamlakat hududida ham, undan tashqarisida ham erkin harakatlanish qobiliyati, professional sohada muvaffaqiyatga erishishga e'tibor qaratish, bandlikdagi o'zgarishlar, dunyoning istalgan nuqtasidan ishlash qobiliyati bularning barchasi aholi sonini hududlar, mehnat sohalari, mehnat bozorlari va boshqalar o'rtasida qayta taqsimlashga olib keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Aholining tabiiy harakati, ya'ni aholi tug'ilishi, vafot etishi, nikoh qurish hamda aholining nikohdan ajralishlar muammolarini tadqiq qilish borasida xorijiy mamlakatlar olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Demografik jarayonlar bilan bog'liq hodisalar orasida Kvashaning (1985) yozishicha tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya yig'indisini aniqlab, ular aholi soni va tarkibini o'zgartirishda asosiy hisoblagan. Har yili bunday jarayonlar soni juda ko'p sodir bo'ladi. Ushbu jarayonlarni o'rganish va ularning qonuniyatlarini aniqlash uchun ushbu jarayonlarning asosiy tendentsiyalarini tushunish kerak deb yozadi Kvasha. Bundan tashqari, Kvashaning (1985) ta'kidlashicha, demografik jarayonlarni tahlil qilishda ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ham inobatga olish kerak.

Aholi ko'payishining evolyutsion nazariyasini ishlab chiqishda fransuz demografi A.Landriga tegishli bo'lib, Chex demografi Pavlik (1967) va rus demografi Kvasha (1974) bu nazariyaning amaliyotga qo'llanilishini ko'rsatib berishgan.

Amerikalik demograflar Hauzer va Dulkanlar (1959) demografiyada tor va keng yondashuvlar orasidagi farq haqida gapirar ekanlar, birinchi demografik tahlilni, ikkinchisini aholishunoslik deb atashgan. "Demografik tahlil, — deb yozadilar ular, — aholi o'zgaruvchanligining tarkibiy qismlari va ularning o'zgarishini o'rganish bilan shug'ullanadi. Aholishunoslik fanining diqqat markazida nafaqat demografik o'zgaruvchilar, balki aholi o'zgarishi va boshqa o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar - ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy,

biologik, genetik, geografik va boshqalar ham bo'ladi. Aholishunoslik fanining ob'ekti hech bo'lmaganda demografik tendentsiyalarning determinantlari va oqibatlaridir deb yozgan amerikalik demograflar.

O'lim-bu avlodning yo'q bo'lib ketish jarayoni. O'lim tirik tug'ilgandan so'ng har qanday vaqtdan keyin hayot belgilarining yakuniy va qaytarib bo'lmaydigan to'xtashi hisoblanadi. O'lim-bu turli yoshlarda sodir bo'ladigan va ularning yig'indisida haqiqiy yoki faraziy avlodning yo'q bo'lib ketish tartibini belgilaydigan ko'plab individual o'limlardan iborat bo'lgan ommaviy jarayon (Стешенко, 1981). Statistika o'lim deganda vafot etganlar yillik sonining bir yildagi o'rtacha aholi soniga nisbati tushuniladi.

Vishnevskiy (1982) tug'ilishni aholida farzand ko'rish, prokreatsiya, yangi avlodlarni yaratish jarayoni sifatida belgilaydi. Uning fikricha o'lim esa avlodlar uchun bir xil darajada doimiy yo'q bo'lib ketish jarayonidir.

Shu bilan birgalikda ko'plab mahalliy olimlar ilmiy ishlarida mamlakatimizning demografik rivojlanishi, aholining tabiiy va mehanik harakatik, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining tabiiy o'sishi bo'yicha ishlarda o'z aksini topgan.

Aholi eng muhim demografik xususiyatlardan biridir. Tug'ilish, o'lim, migratsiya jarayonlari tufayli u doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun indikatorni tahlil qilishda ushbu demografik jarayonlarni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, ma'muriy-hududiy chegaralar va aholi toifalariga e'tibor berilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining tabiiy harakati, xususan, tug'ilish, nikoh va ajrim hodisalari borasida olib borilgan tadqiqot jarayonida statistik jadval va grafiklar, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, kabi turli statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'lim darajasi tug'ilish darajasi bilan birga aholining tabiiy harakatini tavsiflovchi juda muhim demografik jarayon hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasining vafot etganlar soni dinamikasi 20 yil davr oralig'idagi ko'rsatkichi keltirilgan. Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, vafot etganlar soni dinamikasi sezilarli o'zgarishlarsiz, deyarli barqaror darajada bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo so'nggi 5 yil ichida shahar joylarida ushbu ko'rsatkichning o'sganligi, ayniqsa 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1564 nafar yoki 35,6 %ga oshganligi jami vafot etganlar soniga (jami vafot etganlarning 62,1 % shahar joylarga to'g'ri kelgan) ham katta ta'sir qilgan. Qishloq joylarida esa 2020-yildagi ko'rsatkichni inobatga olmasa (COVID-19 pandemiyasi sababli ko'rsatkichlar oshgan) pasayishni ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda so'nggi 20 yil ichida o'limning mutlaq ko'rsatkichlari oshgan bo'lib, bazis davr bilan taqqoslaganda 1415 kishiga yoki 16,3%ga, shahar joylarida esa 2158 kishiga yoki 50,5 %ga oshganini, qishloq joylarida esa 743 kishiga yoki 16,9 % kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shu davrlarda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'lim koeffitsienti ko'rsatkichi aksincha kamayish tendensiyasiga ega (2-jadval).

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, eng past ko'rsatkich 4,5% ga teng bo'lib (shahar joylarida 4,9 % - 2019-yilda, qishloq joylarida 3,6% - 2022- hamda 2023-yillar) 2019-yilda qayd etilgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich 2005-yilda qayd etilgan bo'lib mos ravishda jami ko'rsatkichda 5,8 %, shaharda 6,6 % (shahar joylarida ushbu ko'rsatkich 2023-yilda ham kuzatilgan), qishloq joylarida 5,7 % tashkil etgan.

2023-yilda ushbu ko'rsatkich bazis yilga nisbatan 0,5 %ga yoki 8,9%ga (shahar joylarda 0,2% yoki 3,1%ga oshgan, qishloq joylarda 1,9 % yoki 34,5%ga kamaygan) kamaygan.

1-jadval

Qoqalqog'iston Respublikasida 2003-2023 yillarda vafot etganlar soni dinamikasi¹⁰³

Yillar	Jami	Shahar	Qishloq	O'sish sur'ati (zanjirli),%		
				Jami	shahar	qishloq
2003	8684	4275	4409	94,8	94,1	95,5
2004	8216	4024	4192	94,6	94,1	95,1
2005	9199	4571	4628	112,0	113,6	110,4
2006	8594	4185	4409	93,4	91,6	95,3
2007	8438	4124	4314	98,2	98,5	97,8
2008	8610	4190	4420	102,0	101,6	102,5
2009	8172	4009	4163	94,9	95,7	94,2
2010	8342	4270	4072	102,1	106,5	97,8
2011	8184	4222	3962	98,1	98,9	97,3
2012	8208	4244	3964	100,3	100,5	100,1
2013	8134	4114	4020	99,1	96,9	101,4
2014	8157	4174	3983	100,3	101,5	99,1
2015	8094	4138	3956	99,2	99,1	99,3
2016	8396	4289	4107	103,7	103,6	103,8
2017	8661	4370	4291	103,2	101,9	104,5
2018	8602	4306	4296	99,3	98,5	100,1
2019	8461	4281	4180	98,4	99,4	97,3
2020	9164	4764	4400	108,3	111,3	105,3
2021	8756	4386	4370	95,5	92,1	99,3
2022	9585	5950	3635	109,5	135,7	83,2
2023	10099	6433	3666	105,4	108,1	100,9

2-jadval


Qoqalqog'iston Respublikasida 2003-2023 yillarda o'lim koeffitsiyenti dinamikasi
(har 1000 kishiga nisbatan, promille)¹⁰⁴

Yillar	Jami	Shahar	Qishloq	O'sish sur'ati (zanjirli),%		
				Jami	shahar	qishloq
2003	5,6	6,4	5,5	94,9	97,0	93,2
2004	5,2	6,1	5,2	92,9	95,3	94,5
2005	5,8	6,6	5,7	111,5	108,2	109,6
2006	5,4	6,3	5,4	93,1	95,5	94,7
2007	5,3	6,0	5,3	98,1	95,2	98,1
2008	5,4	5,9	5,3	101,9	98,3	100,0
2009	5,0	5,0	5,2	92,6	84,7	98,1
2010	5,0	5,1	4,8	100,0	102,0	92,3
2011	4,9	5,1	4,7	98,0	100,0	97,9
2012	4,8	5,2	4,6	98,0	102,0	97,9
2013	4,7	5,1	4,6	97,9	98,1	100,0
2014	4,7	5,2	4,5	100,0	102,0	97,8
2015	4,6	5,1	4,4	97,9	98,1	97,8
2016	4,7	5,1	4,5	102,2	100,0	102,3
2017	4,7	5,2	4,6	100,0	102,0	102,2
2018	4,6	5,0	4,5	97,9	96,2	97,8
2019	4,5	4,9	4,4	97,8	98,0	97,8
2020	4,8	5,6	4,5	106,7	114,3	102,3
2021	4,5	5,5	4,4	93,8	98,2	97,8
2022	4,9	5,0	3,6	108,9	90,9	81,8
2023	5,1	6,6	3,6	104,1	132,0	100,0

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistika portalining rasmiy sayti <https://siat.stat.uz/reports-filed/226/table-data>


¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistika portalining rasmiy sayti <https://siat.stat.uz/reports-filed/229/table-data>

E'tiborlisi, mutlaq ko'rsatkichlarda ham, nisbiy ko'rsatkichlarda ham o'lim ko'rsatkichi shaharlarda oshganligi, qishloq joylarda esa kamayganligini e'tirof etish mumkin.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2003-2023 yillarda o'lim koeffitsienti dinamikasi¹⁰⁵

1-rasmda ham yuqorida ta'kidlangan fikrlarning tasdig'i yaqqol ko'rinib, shahar joylarda o'lim koeffitsiyenti sezilarli darajada yuqori, qishloq joylarida esa jami ko'rsatkichga nisbatan pastroqligi ko'rinib turibdi.



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman shaharlarida 2023-yil o'lim koeffitsiyenti¹⁰⁶

Yuqoridagi 2-rasmda Qoraqalpog'iston Respublikasining tuman shaharlari 2023-yilda qayd etilgan o'lim koeffitsiyenti ko'rsatkichlari keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, Taxtako'pir (8,5%), Qorao'zak (7,3 %), Chimboy (7,2 %), Nukus (6,2%), Mo'ynoq (5,7 %), Kegeyli va Shumanay (5,4 %) tumanlarida respublika ko'rsatkichidan ham yuqori qayd etilgan. Qolgan tumanlarda ushbu ko'rsatkich respublika ko'rsatkichidan past bo'lgan. Ammo ushbu

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti: <http://www.stat.uz> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti: <http://www.stat.uz> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ko'rsatkichlar A.M.Merkov va L.M.Suxarebskiy va G.S.Kildinnev, L.L.Kozlova, S.Ananyevalarning mezonlari bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar past va juda past ko'rsatkich sifatida qayd etilgan.

2023-yilda o'tgan oy bilan solishtirganda Taxtako'pir tumanida eng katta o'sish 2,0 % yoki 30,8%ni (2023-yili – 8,5 %, 2022-yili – 6,5 %) tashkil qilgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida esa ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 4,8 % bo'lib, 2023-yilda esa 4,0 % tashkil qilib eng katta pasayishni, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 0,8% yoki 16,7%ga kamayishni qayd etgan.

2023-yilda Qoqaalpog'iston Respublikasi aholisining o'rtacha yoshi 29,1 yoshni tashkil etgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi bo'yicha esa ushbu ko'rsatkich 29,2 yoshni tashkil etgan.

Qoqaalpog'iston Respublikasi go'daklar o'limi yildan yilga kamayib borayapti. Bu respublikadagi tug'ilishlar sonining ko'payishi fonida juda yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Bu shuningdek, respublikada sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, ayniqsa onalar va bolalar salomatligiga alohida e'tibor berilayotganligi bilan izohlash mumkin.

3-jadval

**Qoqaalpog'iston Respublikasida 2002-2022 yillarda go'daklar o'lim
(1 yoshgacha bolalar o'limi) koeffitsiyenti dinamikasi**
(har 1000 tug'ilganga nisbatan, promille)¹⁰⁷

Yillar	Jami	Shahar	Qishloq	O'sish sur'ati (zanjirli),%		
				Jami	shahar	qishloq
2002	19,9	24,0	16,7	89,2	91,6	86,5
2003	18,3	20,1	16,9	92,0	83,8	101,2
2004	18,4	22,0	15,2	100,5	109,5	89,9
2005	17,4	20,2	14,9	94,6	91,8	98,0
2006	17,1	18,8	15,7	98,3	93,1	105,4
2007	14,1	15,9	12,5	82,5	84,6	79,6
2008	13,9	15,2	12,7	98,6	95,6	101,6
2009	13,9	15,4	12,5	100,0	101,3	98,4
2010	11,8	13,5	10,1	84,9	87,7	80,8
2011	11,2	13,1	9,3	94,9	97,0	92,1
2012	11,8	15,4	8,6	105,4	117,6	92,5
2013	11,4	14,6	8,6	96,6	94,8	100,0
2014	12,5	16,7	8,8	109,6	114,4	102,3
2015	11,6	15,0	8,5	92,8	89,8	96,6
2016	13,7	16,2	11,5	118,1	108,0	135,3
2017	16,6	20,1	13,5	121,2	124,1	117,4
2018	13,9	17,0	11,3	83,7	84,6	83,7
2019	10,8	13,2	8,9	77,7	77,6	78,8
2020	12,1	14,8	9,8	112,0	112,1	110,1
2021	10,6	13,4	8,0	87,6	90,5	81,6
2022	10,9	15,8	6,2	102,8	117,9	77,5

So'nggi 20 yil ichida Qoqaalpog'iston Respublikasida go'daklar o'limi darajasi juda past va past darajada bo'lgan (go'daklar o'limi shkalasi bo'yicha baholanganda).

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsa, respublikada go'daklar o'limi koeffitsiyenti ko'rsatkichi yildan-yilga pasayish tendentsiyasiga ega. Yuqoridagi o'lim ko'rsatkichida bo'lgani kabi go'daklar o'limi koeffitsiyenti ko'rsatkichi ham shahar joylarida qishloq joylariga nisbatan ancha yuqroiligini ko'rishimiz mumkin.

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistika portalining rasmiy sayti <https://siat.stat.uz/reports-filed/586/table-data>

Umuman olganda 2002-yildan 2022-yilgacha Qoraqalpog'iston Respublikasida go'daklar o'limi 9,0%o yoki 45,2%ga kamaygan bo'lsa, shahar joylarida ushbu ko'rsatkich 8,2%o yoki 34,2%, qishloq joylarida esa 10,5%o yoki 62,9% kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida go'daklar o'limining asosiy o'lim sabablari bo'yicha yillar davomida qanday o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

4-jadval

Go'daklar o'limining 2013-2023 yillar oralig'ida asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi, %da¹⁰⁸

Yillar	Asab tizimi kasalliklari	Nafas organlari kasalliklari	Perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holat	Tug'ma anomaliya	Boshqa ruknlarda tasniflanmagan klinik va laborator tekshiruvlarda aniqlangan, simptom, belgi	Boshqa kasalliklar
2023	3,0	11,1	75,5	5,7	0,4	4,3
2022	3,5	20,9	59,1	7,2	4,1	5,2
2021	1,7	7,5	73,3	9,7	2,1	5,7
2020	1,5	12,3	75,5	4,6	0,4	5,7
2019	1,3	10,6	74,3	6,8	1,1	5,9
2018	2,9	9,4	79,2	4,7	1,1	2,7
2017	2,4	10,5	74,4	5,9	1,1	5,7
2016	3,3	14,7	73,6	3,9	0,7	3,8
2015	1,7	15,9	73,2	2,9	1,9	4,4
2014	1,4	24,0	60,7	6,5	4,5	2,9
2013	2,5	46,6	43,9	2,1	0,2	4,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 yoshgacha vafot etgan chaqaloqlarning 75,5% perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holatlardan vafot etgan bo'lsa, 2 o'rinda ya'ni 11,1% nafas organlarida vujudga kelgan kasalliklar sababli vafot etishgan. 2013-yilda nafas organlaridagi kasalliklar sababli 1 yoshgacha jami vafot etganlarning 46,6% vafot etgan bo'lsa, 43,9% esa perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holatlardan vafot etishgan. E'tiborlisi, nafas organlaridagi kasalliklar sababli vafot etganlar ulushi 10 yil ichida 35,5%ga kamaygan bo'lsa, perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holatlardan vafot etganlar ulushi 31,6%ga oshgan. Shuningdek, tug'ma anomaliya sababli vafot etgan chaqaloqlar jami vafot etganlardagi ulushi 2013-yilda 2,1%dan 2023-yilga kelib 5,7%ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Jami aholi o'limining asosiy sabablari bo'yicha vafot etishi bilan bog'liq vaziyat biroz boshqacha va quyidagicha tavsiflanadi.

6-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yilda asosiy o'lim sababi qon aylanish sistemasi kasalliklari bo'lib, jami vafot etganlarning 58,2%ni tashkil etgan. Bazis 2012-yil bilan taqqoslaganda holat deyarli o'zgarmagan bo'lib, 2012-yilda ham asosiy o'limga olib keluvchi kasallik bo'lib qon aylanish sistemasi kasalliklari hisoblanib, jami vafot etganlarning 38,8%ni tashkil etgan.

10 yil ichida sezilarli katta o'zgarish nafas organlari kasalliklari 2012-yili jami vafot etganlarning ulushi 12,8%dan 2022-yili 6,8%gacha kamaygan, asab tizimi kasalliklari mos ravishda 6,0%dan 3,4%gacha, kasallanish va o'limning tashqi sabablari 7,7%dan 6,8%gacha, ba'zi infeksiya va parazitlar kasalliklari 3,3%dan 0,6%gacha, siydik tanosil tizimi kasalliklari 4,1%dan 2,0%gacha hamda boshqa kasalliklar 8,4%dan 0,03%gacha kamayganini ko'rishimiz mumkin.

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/34336-2023-3>

6-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘limning asosiy sabablari sinfi bo‘yicha o‘lim koeffitsienti (har 100 000 aholiga nisbatan)¹⁰⁹

O‘lim sabablari	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami vafot etganlar	482,2	471,8	466,2	455,5	465,3	473,3	463,5	449,1	479,5	452,2	488,5
Qon aylanish sistemasi kasalliklari	187,1	190,0	212,0	222,8	244,3	254,4	261,7	253,5	283,6	266,9	284,3
O‘simtalar	43,1	46,6	48,3	49,7	52,7	53,5	51,5	53,1	47,3	45,3	51,5
Nafas organlari kasalliklari	61,6	66,0	30,5	26,2	27,2	23,2	21,0	17,8	33,2	27,3	33,4
Kasallanish va o‘limning tashqi sabablari	37,2	37,5	33,4	38,9	39,0	41,1	36,6	36,5	26,1	34,2	33,1
Asab tizimi kasalliklari	29,1	28,4	17,1	15,5	15,8	13,9	11,4	10,0	10,0	14,2	16,6
Qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari	0,4	0,6	1,7	31,5	10,5	11,1	11,4	14,2	7,4	6,4	16,1
Perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holat	11,6	11,3	17,7	19,6	22,2	25,8	23,8	17,7	18,9	16,1	14,6
Siydik tanosil tizimi kasalliklari	20,0	19,2	16,2	13,7	14,9	13,3	11,4	11,4	12,7	9,7	9,7
Ba‘zi infeksiyon va parazitlar kasalliklari	16,1	12,8	11,8	11,4	8,9	8,0	5,7	4,8	15,5	6,3	2,9
Tug‘ma anomaliya	0,6	1,0	2,3	1,4	1,8	3,2	2,4	2,7	2,1	3,6	2,7
Boshqa kasalliklar	40,6	26,1	51,9	0,7	0,6	0,3	0,6	0,8	0,5	0,6	0,2

Qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari (jami vafot etganlardagi ulushi 0,1%dan 3,3%gacha), o‘smalar (8,9%dan 10,5%gacha), perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holat (2,4%dan 3,0%gacha), tug‘ma anomaliya (0,1%dan 0,6%gacha) o‘lim sabablarida esa aksincha, ko‘rsatkichlar birmuncha oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023-yilda jami vafot etganlarning 29,9 % mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushiga to‘g‘ri kelib, ularning 72,5% erkaklarga, 27,5% ayollarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 60,8% mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi aholi ulushiga, shundan, 46,7% erkaklarga, 53,3% ayollar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o‘lim sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning 50,2% qon aylanish sistemasi kasalliklaridan, 13,4% o‘simtalardan, 7,0% tashqi ta‘sirler (baxtsiz hodisalar, o‘z joniga qasd qilishlar), 5,7% ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan vafot etishgan.

Aholining o‘lim darajasi ta‘sir etuvchi ko‘rsatkichlardan biri bu tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi bo‘lib, qanchalik aholining salomatligi yaxshi bo‘lib, umr ko‘rish davomiyligi ortsa, ushbu ko‘rsatkich oshib boradi.

7-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda ko‘tarilish tendentsiyasiga ega bo‘lib, mazkur holat erkaklarda ham ayollarda ham kuzatilgan. Ushbu ko‘rsatkichning erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farq deyarli 5-6 yoshni tashkil etib, yillar davomida saqlanib kelgan.

¹⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/default/press-reizlar/34336-2023-3>

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 2012-2022 yillarda tug‘ilishda
kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi, yosh ¹¹⁰**

Yillar	Jami	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
2012	71,4	68,9	74,1
2013	71,9	69,6	74,3
2014	72,2	70,0	74,4
2015	72,6	70,4	74,9
2016	72,7	70,7	74,8
2017	72,7	70,1	75,3
2018	73,2	70,9	75,6
2019	74,0	71,6	76,4
2020	72,5	70,3	74,9
2021	73,5	71,4	75,6
2022	72,9	70,6	75,1

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi jami hamda ayollar ko‘rsatkichida 2020- hamda 2022-yillardan tashqari qolgan barcha yillarda o‘shish tendentsiyadiga ega bo‘lgan bo‘lsa, erkaklarda ushbu holat birmuncha o‘zgaruvchan bo‘lib, 2017-, 2020- hamda 2022-yillarda pasaygan. Ushbu o‘zgarishlarni mazkur yillarda o‘lim ko‘rsatkichining ham o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sgani bilan izohlash mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi 2022-yilda bazis 2012-yilga nisbatan 1,5 yoshga yoki 2,1%ga, erkaklarda 1,7 yoshga yoki 2,5%ga, ayollarda esa 1 yosh yoki 1,3%ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. E‘tiborlisi ushbu ko‘rsatkich erkaklarda eng past ko‘rsatkich bo‘lishi qaramay, eng ko‘p oshganidir.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ko‘rsatkichiga tabiiyki qaysidir ma‘noda o‘lim darajasi ta‘sir etadi. Shunday qilib, o‘lim sabablarining asosiy sinflari bo‘yicha o‘limni tahlil qilish bizga bir qator muammolarni aniqlash imkonini berib, ularning yechimi qon aylanish tizimi kasalliklari, nafas olish va ovqat hazm qilish kasalliklari, kasallanish va o‘limning tashqi sabablarini kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa, respublika aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi oshishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Vafot etganlar soni dinamikasi sezilarli o‘zgarishlarsiz, deyarli barqaror darajada bo‘lgan.

- So‘nggi 5 yil ichida shahar joylarida vafot etganlar soni va koeffitsienti o‘sganligi jami vafot etganlar soniga (jami vafot etganlarning 62,1 % shahar joylarga to‘g‘ri kelgan) ham katta ta‘sir qilgan. Qishloq joylarida esa ushbu ko‘rsatkich pasaygan.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasining tuman shaharlari 2023-yilda qayd etilgan o‘lim koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari 7 ta tumanlarida respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan, ammo ushbu ko‘rsatkichlar A.M.Merkov va L.M.Suxarebskiy va G.S.Kildinnev, L.L.Kozlova, S.Ananyevalarning mezonlari bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichlar past va juda past ko‘rsatkich bo‘lgan.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi go‘daklar o‘limi yildan yilga kamayib borayapti. Bu respublikadagi tug‘ilishlar sonining ko‘payishi fonida juda yaxshi ko‘rsatkich bo‘lgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikada go‘daklar o‘limi koeffitsienti ko‘rsatkichi yildan-

¹¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistika portalining rasmiy sayti <https://siat.stat.uz/reports-filed/295/table-data>

yilga pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, o'lim ko'rsatkichida bo'lgani kabi go'daklar o'limi koeffitsiyenti ko'rsatkichi ham shahar joylarida qishloq joylariga nisbatan ancha yuqori bo'lgan.

- Qoraqalpog'iston Respublikasida 10 yil ichida asosiy o'limga olib keluvchi kassalik bo'lib qon aylanish sistemasi kasalliklari bo'lgan.

- Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 yoshgacha vafot etgan chaqaloqlar perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holatlardan vafot etgan bo'lsa, nafas organlaridagi kasalliklar sababli vafot etganlar ulushi 10 yil ichida kamaygan, perinatal davrda yuzaga keladigan alohida holatlardan vafot etganlar ulushi oshgan.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik rivojlanish nuqtai nazaridan vaziyat barqaror deb baholash mumkin. Negaki, respublikada qayd etilgan o'lim hamda go'daklar o'limi ko'rsatkichlari pasayish tendentsiyasiga ega. Shu bilan bir qatorda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi yildan-yilga o'sib borayotgani ham alohida e'tirof etish kerak.

Shunga qaramasdan, go'daklar o'limiga asosiy sabab bo'layotgan perinatal davrdagi alohida holatlarga sog'liqni saqlash tizimida yanada katta e'tibor qaratib, bu borada ishlarni yanada takomillashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Hauser P.M., Duncan O.D. (1959) Overview and Conclusion. The Study of Population. An Inventory and Appraisal. Chicago.

Вишневский А.Г. (1982) Воспроизводство населения и общество. - М.: Финансы и статистика.

Кваша А.Я. (1974) Проблемы экономико-демографического развития СССР.- М.: Статистика, - 235 с;

Кваша А.Я. (1985) Что такое демография. - М.: Мысль, стр. 9; 16;

Кваша а.я. Что такое демография. - м.: Мысль, 1985г. стр.

Павлик З. (1967) Вопросы перспективного исчисления населения в Чехословакии //Совершенствование планирования и управления народным хозяйством. -М., - 157 с.;

Стешенко В.С. (1981) Изучение воспроизводства народонаселения. - Киев, р. 409;